
Bayram munosabati bilan mehnat faxriysi xonadonida hashar tashkillandi

8 mart - "Xalqaro xotin-qizlar kuni" bayrami arafasida "Mahalla" hayriya jamoat fondi Farg'ona shahar bo'linmasi tomonidan o'n nafarga yaqin keksa-nuroniylar, o'zgaralar parvarishiga muhtoj onaxonlar holidan xabar olindi.

Ularning xonadonlarida hashar tashkillanib, hovli chiqindilardan tozalanib tartibga keltirildi. "Yoshlar" MFY xududidagi Turon ko'chasi 51-uyda yashovchi yakka-yolg'iz, 40 yil davomida maktabda o'qituvchi bo'lib ishlagan mehnat faxriysi 94 yoshli Valiya Edixanovaning uyida atrof devorlar oqlandi, ochiq ayvon va uy ichilari bo'yoqlandi. Shuningdek, loyiha davomida o'nga yaqin yakka-yolg'izlarga 7 xil turdagi zaruriy oziq-ovqat mahsulotlari berildi.

Berilayotgan e'tibor va g'amxo'rlikdan mamnun bo'lgan keksa-nuroniylar tashkilotchilarga o'z minnatdorliklarini bildirishdi.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati
2023-03-10 09:51:30